Farzand va farzand tarbiyasi haqida

https://www.uzkimyosanoat.uz/oz/manaviyat/kun-hikmati/farzand-va-farzand-tarbiyasi

Birni bersang otangga,
Mingni olasan bolangdan.

***

Bola beshikdan yiqilguncha,
Podsho taxtidan yiqilsin.

***

Bol – shirin, boldan – bola shirin.

***

Bola bo‘lsa, beshik topilar.

***

Bola bo‘lsa, sho‘x bo‘lsin,
Sho‘x bo‘lmasa, yo‘q bo‘lsin.

***

Bola ko‘ngli — podsho.

***

Bola — xondan ulug‘.

***

Bola o‘nga kirsa, otasi songa kirar.

***

Bolali uyda sir yotmas,
Bolasiz uyda kir yotmas.

***

Gung bolaning gapini
Kar onasi tushunar.

***

Yolg‘iz bola – yovdan yomon.

***

Yolg‘iz bola yig‘loq bo‘lar,
Yolg‘iz tuya – baqiroq.

***

Ona bilan bola – gul bilan lola.

***

Onaning ko‘ngli bolada,
Bolaning ko‘ngli dalada.

***

Farzandni boqish qiyin,
Farzandga yoqish qiyin.

***

Yaxshi o‘g‘il – el obro‘si,
Yaxshi qiz – uy obro‘si.

***

O‘nta bo‘lsa o‘rni boshqa,
Qirqta bo‘lsa – qilig‘i.

***

O‘g‘illi uy – farishta,
Qizli uy – sarishta.

***

Qiz – meniki, baxti – o‘zganiki.

Kumush Abdusalamova to‘pladi